

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori,
f.f.n.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRINING POETIKASI

Annotatsiya: O'zbek adabiyotining yirik vakili Shukur Xolmirzayevning hikoya va qissalarida kuzatiladigan voqelikni san'atkorona ifodalash usullari, obraz yaratish mahorati, til va uslubdagi xalqona ohang, badiiy tafakkurning chuqurligi kitobxon diqqatini tormay qolmaydi. Adib nasriy asarlaridagi poetik qatlamni ochib berishda adabiy tahlil, taqqoslash, tipologik yondashuv kabi metodlardan foydalangan. Shuningdek, Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitet, xalqona tafakkur va zamonaviylikning badiiy sintezi o'ziga xos uslubda aks ettirilgan. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada o'zbek nasri taraqqiyotida adib ijodining tutgan o'rni xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: nasr poetikasi, badiiy uslub, obrazlar tizimi, milliy tafakkur, xalqona ruh, realistik tasvir, badiiy tafakkur, kompozitsiya, til va uslub, psixologizm, ma'naviy-axloqiy g'oyalar.

Хамидова Мухайёхон Обидовна

Наманганский государственный университет, профессор кафедры узбекской литературы, кандидат филологических наук

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ПОЭТИКА ПРОЗЫ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация: Приёмы художественного воплощения действительности, наблюдаемые в рассказах и сказках Шукура Холмирзаева, крупнейшего представителя узбекской литературы, мастерство создания образов, народный колорит языка и стиля, глубина художественной мысли не могут не привлечь внимание читателя. Для раскрытия поэтического пласта в своих прозаических произведениях писатель использовал такие методы, как литературный анализ, сравнение, типологический подход. Также в прозе Шукура Холмирзаева в уникальном стиле находит отражение художественный синтез национального менталитета, народного мышления и современности. С этой точки зрения в статье подробно рассматривается место творчества писателя в развитии узбекской прозы.

Ключевые слова: поэтика прозы, художественный стиль, образная система, национальная мысль, народный дух, реалистический образ, художественная мысль, композиция, язык и стиль, психологизм, духовно-нравственные идеи.

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

*Namangan State University, Professor of the Department of Uzbek Literature,
Candidate of Philological Sciences*

*Education, candidate of philological sciences
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com*

POETICS OF SHUKUR KHOLMIRZAYEV'S PROSE

Abstract: The methods of artistic expression of reality observed in the stories and tales of Shukur Kholmirezayev, a major representative of Uzbek literature, the skill of creating images,

the folk tone in language and style, and the depth of artistic thought cannot fail to attract the reader's attention. The writer used methods such as literary analysis, comparison, and typological approach to reveal the poetic layer in his prose works. Also, the artistic synthesis of national mentality, folk thinking, and modernity is reflected in Shukur Xolmirzayev's prose in a unique style. From this point of view, this article provides a detailed consideration of the place of the writer's work in the development of Uzbek prose.

Keywords: *prose poetics, artistic style, system of images, national thought, folk spirit, realistic image, artistic thought, composition, language and style, psychologism, spiritual and moral ideas.*

Kirish

XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida o'ziga xos ijodiy yo'nalish, betakror uslub va chuqur badiiy tafakkur egasi bo'lgan ijodkorlar safida Shukur Xolmirzayev alohida o'rin tutadi. Uning nasriy ijodi, xususan, hikoya, qissa va romanlari orqali o'zbek xalqining turmush tarzi, mentaliteti, ijtimoiy-ruhiy holati, qadriyatlari va zamonaviy muammolari teran va ta'sirchan badiiy tasvirga ega bo'lib namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Shukur Xolmirzayev nasrida kuzatiladigan poetik xususiyatlar — syujet qurilishi, obrazlar tizimi, xalqona nutq, psixologik tafsilotlar va ma'naviy-estetik qatlamlar uning yozuvchilik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, adib asarlarida badiiy tafakkur va hayotiy kuzatuvchanlikning uyg'unligi, voqelikni san'atkorona talqin etish orqali o'quvchining tafakkurini boyitishga intilishi e'tiborga molikdir.

Shukur Xolmirzayev ijodi o'zbek adabiyotshunosligida muntazam o'rganib kelinayotgan mavzulardan biri sanaladi. Uning hikoya, qissa va romanlaridagi hayotiylik, realizm va badiiy-falsafiy qatlamlar bir qator tadqiqot ishlarida turli nuqtai nazardan tahlil etilgan. Jumladan, B.Nazarov, M.Qo'shjonov, S.Mamajonov [4, 52-58], U.Normatov [5, 198-206], O.Tog'ayev [8, 218-227], I.G'afurov [12], S.Sodiqov, A.Kattabekov, H.Boltaboyev [1, 52-58], Q.Yo'ldoshev [11, 17-21], X.Do'stmuhammedov kabi taniqli adabiyotshunos olimlar Sh.Xolmirzayev ijodining g'oyaviy-badiiy ahamiyatiga to'xtalib, uning zamonaviy o'zbek nasrida tutgan o'rnini asoslab berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Asosiy diqqat markazida Shukur Xolmirzayevning nasriy asarlarida ifodalangan badiiy tasvir vositalari, syujet-kompozitsion qurilma, til va uslub

xususiyatlari, obrazlar tizimi hamda g'oyaviy-falsafiy qatlamlarning o'zaro uyg'unligi turadi. Mazkur maqolada adib nasrining poetikasini ilmiy asosda o'rganish uchun adabiyotshunoslik fanining zamonaviy metodologik yondashuvlaridan foydalanildi. Jumladan, tahliliy (analitik), Taqqoslash (komparativ), tipologik yondashuv, struktural yondashuv, tarixiy-adabiy yondashuv usullari yordamida Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-estetik va poetik tizimi kompleks holda o'rganildi va yozuvchining o'ziga xos adabiy olami, milliy ruhni ifodalashdagi mahorati hamda badiiy tafakkur uslubi ilmiy asosda yoritildi.

Tahlillar va natijalar

Shukur Xolmirzayevning nasriy asarlari chuqur badiiy tafakkur, xalqona ruh va hayotiy voqelikning san'atkorona talqini bilan ajralib turadi. Adibning hikoya, qissa va romanlarini tahlil qilar ekanmiz, ularning poetik tuzilmasi, obrazlar tizimi, til va uslub xususiyatlari quyidagicha xulosalarga olib kelganini kuzatishimiz mumkin:

1.Realistik voqelikning badiiy talqini.

Shukur Xolmirzayev asarlarida voqelik aniq, hayotga yaqin tasvirlanadi. Biroq bu tasvirda quruq realizmdan farqli o'laroq, poetik yondashuv kuchli. Yozuvchi har bir holat, voqea va qahramonning ichki dunyosini nozik badiiy vositalar orqali ochib beradi. Masalan, "Tabassum", "Yashil Niva", "Bitikli tosh", "Qariya" kabi hikoyalarida ichki monolog va tafakkur oqimi orqali ruhiy holatlar chuqur yoritilgan.

2.Milliy obraz va xalqona ruh.

Adib obrazlar yaratishda milliy xarakter va xalqona tafakkurga tayangan. Uning qahramonlari — oddiy Surxondaryo, ya'ni yozuvchining o'zi tug'ilib, voyaga yetgan vohaning odamlari. Bunday obrazlar xalq ruhiyatini, o'zbek kishisining dunyoqarashini badiiy timsolga aylantiradi. Ularning nutqida xalq maqollari, iboralar, shevalar tez-tez uchraydi, bu esa matnning milliy koloritini kuchaytiradi.

3.Til va uslubning poetik tabiati.

Shukur Xolmirzayevning badiiy tili sodda, ammo chuqur ma'noli. Ko'p hollarda tasvirlar metaforik, ko'rgazmali va poetik xarakter kasb etadi. Til boyligi, iboraviy ifodalar, kinoyalar va bevosita xalq og'zaki ijodidan olingan elementlar adib uslubining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Bu jihat uning nasrini poetik jihatdan yuksak darajaga olib chiqqan.

4.Kompozitsiya va syujet qurilishi.

Adib asarlarining kompozitsion tuzilmasi sodda ko'ringani bilan, ichki g'oya va dramatik keskinlik nuqtai nazaridan murakkablikka ega. Voqealar oqimi ko'pincha oddiy kundalik hayot tasviri bilan boshlanadi, ammo asta-sekin ichki ziddiyatlar orqali o'quvchini chuqur falsafiy qatlamga olib kiradi. Bu uslub adibning voqelikka ichki nigoh bilan qarashidan dalolat beradi.

5.Psixologizm va ichki monologlar.

Ko'plab hikoya, qissa va romanlarida ichki monologlar orqali qahramon tafakkuri, ichki kechinmalari ochib beriladi. Bu jihatlar adib nasrining poetikasida yetakchi o'rin tutadi.

Shukur Xolmirzayevning badiiy uslubi, avvalo, hayotga yaqinligi va samimiyligi bilan ajralib turadi. U inson qalbining eng nozik holatlarini bevosita, ortiqcha bezaklarsiz, ammo ta'sirchan tarzda tasvirlaydi. Bu jihat, ayniqsa, uning "Boychechak", "Podachi" kabi hikoyalari, "O'n sakkizga kirmagan kim bor" qissasi, "So'nggi bekat", "Olabo'ji" romanlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi voqelikni badiiy jihatdan qayta ishlashda oddiy hayotiy tafsilotlar orqali chuqur ma'naviy mazmunni ochishga erishadi.

Shukur Xolmirzayev ijodining dastlabki bosqichida kishilar hayotidan oddiy voqealarni tasvirlash orqali ular o'rtasidagi munosabatlarni hamda tabiat va inson muammolarini tadqiq etgan bo'lsa, 80-yillar o'rtalaridan boshlab yozuvchi ijodida inson shaxsi muammosi birinchi o'ringa chiqadi. Insonning murakkab ichki olamining sirli, sehrli tomonlarini ochish, kashf etish Sh.Xolmirzayev ijodining ikkinchi bosqichida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda yozuvchining voqelikni idrok etish prinsiplari mukammallasha va murakkablasha boradi. Ijodining dastlabki bosqichida tasvirda qisqalikka, ixchamlikka, soddalikka intilgan yozuvchi, endi

inson ichki kechinmalarini, o'y-fikrlarini kengroq berishga, shu orqali voqelikning murakkab tomonlarini dadil, oshkora ochishga harakat qiladi. Uning qahramonlari hayotga, tuzumga nisbatan o'z fikrini qo'rqmay baralla ayta boshlaydi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu davrda Shukur Xolmirzayev asarlarida voqelikning, tuzumning keskin o'zgarish pallarini va bu o'zgarishlarning inson hayotiga ta'sirini katta mahorat bilan aks ettira boshladi. Yozuvchi, asosan, inson hayoti, umri mazmunini, bu o'tkinchi dunyoda odamzodning kechmish-kechirmishlarini, notabiiy tuzum orttirgan inson borlig'idagi jarohatlarni ko'rsatish maqsadida ularning "qalb qulflari"ga kalit soladi va shu orqali qahramonlar ichki dunyosini ochadi. Adibning "Bitikli tosh", "Xumor", "Yashil Niva", "Ustoz", "O'zbek xarakteri", "Qadimda bo'lgan ekan", "Ko'k dengiz" hikoyalari mana shunday ijod tamoyili samarasi bo'lib ko'zga tashlanadi.

80-yillar oxirlariga kelib sho'rolar g'oyasining yolg'onlar, aldovlardan iborat ekanini hayot ko'rsata boshladi. Buni birgina yurtimiz tarixi misolida olib ko'rsak, xom ashyo yetkazib beruvchi bazaga ayangan hududimizda avvalo tabiat va inson ekologiyasi buzildi. Birgina paxta yakkahokimligi tufayli odamlar salomatligi yo'qoldi. Ona zamin esa zaharlandi, Orol dengizi quridi. Bu xalq boshiga tushgan fojining amaldagi natijasi edi. Adabiyotimizda bu fojialar o'z badiiy talqinini topa boshladi. Shu jihatdan Sh.Xolmirzayevning voqelikning qayta qurish davrini tadqiq etgan hikoyalari alohida qimmatga ega. "Xumor", "Yashil Niva", "Bitikli tosh", "Ustoz" va boshqa asarlarida muallif turg'unlik davri illatlariga chalingan zamonasoz odamlar obrazini yaratib, ularda inson qadr-qimmatining oyoqosti qilinishi, toptalishi, xo'rlanishini butun fojialari bilan ko'rsatadi [7, 69]. Sh.Xolmirzayev turli toifaga mansub odamlar hayoti tarzini asarlari voqeasiga asos qilib olib, ularning taqdirida muhrlangan zamona jarohatlari asoratlarini, og'riqlarini, dardlarini ko'rsatadi. Masalan, Sh.Xolmirzayev ijodiy prinsiplaridan biri – hayotni xolis ko'z bilan ko'rish va qanday ko'rsa shundayligicha tasvirlashdir. Ba'zi yozuvchilar "xolis ko'z bilan bilan tasvirlash" degan fikrga "samimiy" tasvirlash kerak, degan so'zni ham qo'shishadi. Sh.Xolmirzayev mana shu "samimiy tasvirlash kerak" degan mulohazali fikrga o'z munosabatini

quyidagicha ifodalaydi: "...yozuvchi biron mavzuni olib, kitobxonga o'zi uchun aziz-muqaddas bo'lgan bir nimalarni aytmoqchi, pirovardi, unga bir nima bermoqchi, uning ma'lum bir masalaga munosabatini o'zgartirmoqchi yoki o'sha masalaga yangicha nazar bilan qarashni istab shu ishni qilyapti. Bu yozuvchini nosamimiy deyish mumkinmi? Yoxud ba'zi o'rtoqlar "samimiyat bilan tasvirlash" deganda, ijobiy qahramonni juda suyib, o'rni kelganda, yalab va eng maqtov, go'zal so'zlarni unga nisbatan qo'llab va, aksincha, salbiy qahraomnga kuchli nafrat bilan qarab, faqat xunuk so'zlarni unga nisbatan qo'llab tasvirlashni tushunadilar. Yo'q, ... men bu fikrga qo'shilmayman, bu hol, birinchidan, hayotni xolisona tasvirlash yo'lini buzadi. Ikkinchidan, yozuvchining pozitsiyasi kitobxonga darrov ma'lum bo'lib qoladiki, bu ham menga uncha yoqmaydi. Mening bu borada fikrim shunday: asar oxirida yozuvchi nima demoqchi? Asar qanday tugaydi? Qahramonlarning (yozuvchi aralashmagan holda) o'zaro munosabatlaridan kelib chiqadigan ma'no qanday? Ana shu savollarning javobi – yozuvchining mavkur masalada pozitsiyasini belgilaydi. Agar uning asosidan insonlarga foydali bir gap chiqsa, janoblarining ulug' samimiyati ham ana shunda bo'ladi!" [6, 351].

Yozuvchining ushbu mulohalari ham uning o'z asarlarida real hayotni poetik talqin orqali ochib berganligi, shuningdek, xalqona ruh va milliy tilning badiiy imkoniyatlaridan samarali foydalanganligini tasdiqlaydi. Uning asarlarida til va uslubdagi sodda, ammo ma'nodor ifodalar, kompozitsion puxtalik va psixologik tahlil uning nasriy poetikasining asosiy komponentlari sifatida shakllangan. Shuningdek, adib ijodining poetik xususiyatlarini ilmiy-nazariy asosda chuqur tahlil qilish, o'zbek adabiyotining zamonaviy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosalar

Shukur Xolmirzayev nasri o'zbek adabiyotida xalqona ruh, teran psixologizm va hayotiylik bilan uyg'unlashgan o'ziga xos poetik tizimni shakllantirgan. Uning hikoya, qissa va romanlarida oddiy inson taqdiri, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar, milliy qadriyatlar va ma'naviy-axloqiy masalalar hayotga yaqin va chuqur badiiy

tafakkur asosida tasvirlanagan. Yozuvchining til va uslubda xalq ogʻzaki ijodi elementlaridan mohirlik bilan foydalanishi, obraz yaratishda milliy xarakterlarni teran yoritishi va voqealarni poetik shaklda talqin qilishi uning nasriga oʻziga xos estetik rang-baranglik baxsh etadi. Kompozitsion puxtalik, syujetning soddaligi ortidagi falsafiy mazmun va ichki monologlar orqali ifodalangan psixologik chuqurlik adib ijodining eng muhim xususiyatlaridan sanaladi. Shunday qilib, Shukur Xolmirzayev nasri — bu oʻzbek xalqining ruhiy olami, ijtimoiy hayoti va milliy tafakkurini badiiy-estetik mezonlar asosida mujassamlashtirgan adabiy maktab namunasidir.

Adabiyotlar

1. Boltaboyev H. Nasr va uslub.-Toshkent: Fan, 1992.-B. 52-58.
- 2.Hamidova M. Hozirgi oʻzbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navroʻz, 2020.- 148 b.
- 3.Hamidova M.O.Shukur Xolmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.
- 4.Mamajonov S. Haqiqat izlab // Saodat, 1990.-№ 2.B.10-11.-T.: Fan, 1992.-B. 52-58.
- 5.Normatov U. Nasrimiz an'analari.-Toshkent:Adabiyot va san'at, -B.198-206.
- 6.Normatov U. Yetuklik.-Toshkent: Adabiyot va san'at.-1982.-B.351.
- 7.Tavaldiyeva G.Shukur Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari: Filol.fan.nomz....diss.-Toshkent, 2001.- B. 69.
- 8.Togʻayev O. Tasvir va muddao // Sharq yulduzi.-1981.-№ 11.-B. 218-227.
- 9.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. 1-jild: Hikoyalar.-Toshkent: Sharq, 2003. 448 b.
- 10.Xolmirzayev Sh. Bilib yozgan yaxshi // Sharq yulduzi, 1977.- № 2.-B.77.
- 11.Yoʻldoshev Q. Shaxsni tasvirlash-bosh maqsad // Oʻzbek tili va adabiyoti.- 1988.-№ 5.-B. 17-21.
- 12.Gʻafurov I. Inqilob hamisha harakatda //Oʻzbekiston adabiyoti va san'ati, 1984.-№ 11.-26-oktabr.